

MUZEYLARNING TARAQQIY ETISHI: TERMIZ ARXEOLOGIYA
MUZEYI TALQINIDA

Istamova Shahzoda Islom qizi

Termiz Davlat Universiteti, Milliy libos va san'at fakulteti

MSM yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xumoyiddin Turayev (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lgan muzeylarning bugungi kundagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Milliy an'ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshlanganligi to'g'risida mulohazalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muzey, arxeologiya, tarix, madaniyat, eksponat, topilma, numizmatika, ko'hna Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, madaniy meros.

Kirish: Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir. Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib, amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 27-may kuni «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qarorni qabul qilishdan maqsad - mamlakatdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-

quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash kabilardan iborat bo'lib, bu mamlakatimizda nafaqat muzeylarning balki, ma'naviy-mafkuraviy ta'lim- tarbiyaning ham o'rni ortib borayotganidan darak beradi.

Asosiy qism: Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda. Bugungi kunda muzeylarimizga katta ahamiyat qaratilmoqda, Prezidentimiz tashabbusi bilan bu sohada 10 yillik davlat dasturini qabul qilinganligi, ya'ni 2017-2027-yillar davomida yurtimizdagi barcha muzeylarni rekonstruksiya qilish, qayta ta'mirlash va ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash kabi yangi qonun va farmoyishlarning tasdiq topishi tufayli muzeylar faoliyati yanada tarqqiy topayotganining dalilidir. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o'nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ochiq osmon ostidagi muzeylar qaytadan ta'mirlangani fikrimiz tasdig'idir.

Misol tariqasida Termiz arxeologiya muzeyini keltirish mumkin. Viloyat Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida" gi 98-sonli va 1999-yil 27-dekabdagi "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi 545-sonli qarorlari asosida tashkil etildi. Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-oktyabrdagi bayonnomasiga muvofiq, Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va Madaniyat ishlari vazirligining 2001-yil 24-oktyabrdagi buyrug'iga asosan vazirlik tizimiga kiritildi. 2003-yil Termiz shahar Arxeologiya muzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27346 ta edi. 2004- yil davomida esa Arxeologiya muzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27457 taga etdi. Shundan 19 824 tasi numizmatika fondiga tegishli tangalar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, muzeyda jami bo'lib, 8.500 ga yaqin arxeologik ashyoviy topilmalar, 19 824 dona numizmatika fondiga oid turli davrlarga xos tangalar mavjud. Arxeologiya muzeyi o'zining 3 yillik faoliyati davomida muzey fondini to'ldirish bo'yicha bir qancha

ishlarni amalga oshirdi. Qolaversa Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa va Zurmala yodgorliklarida olib borilayotgan qazishma ishlari natijasida chiqayotgan topilmalar ham Termiz Arxeologiya muzeyida restavratsiya qilinib, ko'rgazmalar zalidan joy olib kelmoqda. Butun tarixi davomida Termiz Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyoti va o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim rol o'ynagan. "Buyuk ipak yo'li"ning asosiy chorrahalaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan qadim shahardir. Buddizm dinining va u bilan bog'liq bo'lgan memorchilik an'alarining Xitoy va Uzoq Sharq mamlakatlariga tarqalishi ham aynan Termiz orqali yuz bergan. Termizning geografik jihatdan qulay joylashishi, iqlimi va strategik mavqei ko'plab davlatlar va hukmdorlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortar edi. Shuning uchun u Eron va grek, arab va mo'g'ul bosqinchilarining hujumlariga duchor bo'ldi, Movarounnahr ichki qon to'kishlarini boshidan kechirdi, mahalliy hokimlar zulmidan azob chekdi. Termiz istilochilarning olovli janglarida yonib ketar, kulga aylanar, qaddini rostlab paydo bo'lardi, o'sib shon-shuhrat va qudratga ega bo'lardi. U yana halok bo'lardi, yonardi, kulga aylanardi va yana o'zini tiklab ulg'ayardi. Ko'hna Termiz yoki Kushon Termizi Amudaryo bo'yida rivoj topgan bo'lsa, Chingizxon bosqinidan so'ng u sharqroqda Surxondaryo bo'yida qad ko'tarib gullab-yashnaydi. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar tufayli vayronaga aylangan Termiz XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab janubroqda Pattakesar qishlog'i zaminida bunyod etiladi va ravnaq topadi. Ko'hna Termiz obidalari o'zining takrorlanmasligi bilan hamisha qadimgi davr mualliflari, ilk o'rta asr Xitoy sayyohlari va musulmon davri tarixchilarining diqqat-markazida bo'lib keldi. Shu sabab ham aynan Termiz shahrida butun O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Arxeologiya muzeyi qad rostladi.

Xulosa: O'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar - tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini ham boyitishga benihoya hissasini qo'shadi. Muzeylarga davlat ahamiyatida nazar tashlanishi, ularning rivoj topishi va qayta ta'mirlanishi, eksponatlar bilan boyitilishi bu- bizning yurtimiz tarixiga yanada chuqurroq nazar tashlanayotgani hamda tarix sari yana bir karra ildamroq qadam tashlanganidan dalolat beradi. Bugungi kunda deyarli 80% aholi muzeylar orqali bevosita tarix bilan yuzlashadilar. Zero, muzeylar tarixdan hikoya qiluvchi jonli buyumlar makonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov A. Madaniyat va san‘at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent.G_.G_ulom . 2016.
2. Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma‘naviy yuksalish. – Toshkent: G_.G_ulom .2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 avgustdagi -Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir! mavzuzidagi suhbat.
4. Urinov S. K. Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022.

